Dehqonobod tumani mahallalari aholisining muammolari o'rganildi

// 14 March 2025 yil
https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/dehqonobod-tumani-mahallalari-sholisining-muammolari-o-rgani



Xabar berib borayotganimizdek, “O‘zkimyosanoat” AJ ishchi guruhi tomonidan joylarda aholi muammolarini o‘rganish ishlari davom etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda tomorqalardan samarali foydalanishni tashkil etish orqali aholi bandligi va daromadlarini oshirishga qaratilgan ishlarni yanada jadallashtirish to‘g‘risida”gi farmoyishida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan “O‘zkimyosanoat” AJ rahbariyati va mas‘ullaridan iborat ishchi guruhi hududlarda o‘rganish ishlarini amalga oshirmoqda.



Xususan, Jamiyat ishchi guruhi tomonidan Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanining “Bozortepa” MFYda joylashgan 19-maktab, “Obod” MFYda joylashgan 51-maktab hamda 10-maktabgacha ta’lim muassasalarining holati o‘rganildi. Ulardagi mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha amaliy choralar ko‘rilishi belgilandi.



Shuningdek, mahallalarning ijtimoiy yordamga muhtoj oilalar holidan xabar olindi, malakali shifokorlar bepul tibbiy maslahatlar ko‘rsatdi. Xayriya yordamlari tarqatildi.



Shu bilan birga, aholining bo‘sh turgan tomorqalaridan samarali foydalanishlarini tashkil etishda ko‘maklashish maqsadida ko‘chatlar tarqatildi. Tomorqalarni obodonlashtirish uchun maxsus texnikalar yo‘naltirildi.





“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati